

KELAJAKNI KIMLARGA TOPSHIRAMIZ

Durdona Tumanboyeva Ilhomjon qizi

Namangan muhandislik texnologiya instituti talabasi

Tayanch so'zlar: innovatsiya, texnika, axborot, resurslar, texnologiya, kompyuter, internet tarmoqlari.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlardan, ma'lumki barchamizning habarimiz bor. Bu ishlarni amalga oshirishda yuqori malakali mutaxassislar roli benihoyatda kattadir. Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika hamda texnologiya asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimini ishlab chiqish va uni jadal sur'atda hayotga tatbiq etish zarur.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'i Ziyonet ni tashkil etish to'g'risida"gi qarori asos qilib olinmoqda.

Mazkur qaror, qonun va farmonlarda "...maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim o'quv yurtlarining ta'lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo'llanishga asoslangan ilg'or ta'lim tizimlarini kiritish" vazifalarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham har bir mutaxassis o'z sohasida zamonaviy axborot texnologiyasidan to'g'ri foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuncha sa'y-harakatlarga qaramay bugungi kunda talaba yoshlarning bu ishlarga javobi qanday bo'lyapti? degan savol barchamizni o'ylantiryapti. Bugungi kunda texnologiya, Internet tarmog'i va yosh avlod bir-biri bilan shu darajada bog'lanib ketdi-ki, ularni bir-biridan ajratish mushkul ishlardan biri bo'lib qoldi. Lekin, barchamizga ma'lumki barcha texnika, texnologiya va mobil telefonlar o'zimiz ya'ni inson tomonidan yaratilgan. Lekin hozirda, biz ularni emas, ular bizni boshqarib borishmoqda! Bu say-harakatlarni inobatga olib, o'quv jarayonlarida telefondan foydalanish bilim olishga xalaqit beradi, ta'lim sifatini tushiradi, o'qituvchi va o'quvchini darsdan chalg'itadi. Dars mashg'ulotida telefon global muammoga aylanib bo'lgan. Masalan, Fransiya prezidenti Emmanuel Makronning fikrlaridan biri dars mashg'ulotlarida telefondan foydalanishni taqiqlash bo'lgan. Natijada 2018 yilda Fransiyada dars mashg'ulotlarida telefondan foydalanish ham o'qituvchiga, ham o'quvchilarga taqiqlangan. O'zbekiston 2012 yildayoq dars mashg'ulotlarida foydalanishni taqiqlagan. Lekin bizda qonunlar unchalik ishlamagani tufayli o'quvchilar va talabalar hamon dars payti yoki o'quv binosida bemalol telefondan foydalanishmoqda.

Avvalo, telefon yoshlarning o'ziga zarar!!!

Amerikalik olimlar yoshlarning telefonga qanchalik mukkasidan ketganligini ilmiy jihatdan o'rganishgan. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar har 10 daqiqada qo'lga telefonni oladi. Texnikalardan chiqayotgan nurlanish o'sayotgan organizm uchun xavfli hisoblanadi. Nurlanish odam organizmiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Telefonlarning elektromagnit nurlanishlari xotirani susaytiradi, arterial qon bosimining oshishi va uyqisizlikka sabab bo'ladi. Nurlanish butun organizmga ta'sir qiladi, lekin markaziy asab tizimi, immunitet va bosh miya eng ko'p aziyat chekadi. Tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, mobil apparatdan chiqadigan elektrmagnitli nurlanish odam organizmdagi to'qimalarga irsiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shunday o'zgarishlardan biri saraton kasalligidir. Telefondan uzoq muddat

davomida foydalanish bosh miya saratoni ga sabab bo'lishi ehtimolda holi emas. Shved professori Leyt Selfordning fikriga ko'ra, hozirgi avlod o'smirlari mobil telefonidan foydalanishi sababli erta qariy boshlaydi. Yoshlarning quloqchinda soatlab foydalanishi eshitish qobiliyatining susayishiga olib keladi. Olimlarning hisoblashicha, kuniga 3 soat quloqchinda foydalanish 5 yildan keyin eshitish qobiliyatini 30foizga tushirib yuborishi mumkin.

Yana shunday ibora ham bor edi: "Biz odatlarimiz yig'indisimiz" degan shu gapga albatta qo'shilaman agar kuniga sohamiz bo'yicha o'z ustimizda ishlab o'zimizni foydali ishlar bilan band qilsak, bir yil ichida tengdoshlarimiz orasida yetakchiga aylanamiz, uch yil ichida esa yashayotgan hududimizda yetakchi bo'lamiz, besh yil ichida esa mamlakatda, odatni uzluksiz ravishda davom ettirsak o'n yil ichida xalqaro mehnat bozorida ham yetakchiga aylanishimiz mumkin. Faqatgina bizdan talab qilinadigan narsa odatni diskret emas uzluksiz davom ettirishdir. Hamda buning aksi sifatida vaqtimizni besamar o'tkazsak turli xil video o'yinlar, you tube shorts ko'rish, instagramdagi yolg'on hayotni kuzatishda davom etsak ham sog'ligimizdan ham eng qimmatli boyligimiz vaqtimiz yoshligimizdan ayrilamiz.

Bugun telefonni ko'rayotgan ko'zlar, ertaga hech narsani ko'rmasligi. Bugun naushnikda hamma narsani eshitayotgan qulog'imiz, ertaga quloq apparati bilan ham eshitmay qolishi mumkin!!! Tanlov esa o'z qo'limizda.

Shunday ekan nega bizga in'om etilgan ne'matlardan to'g'ri foydalana olmaymiz?

Hozirgi vaqtda texnika va texnologiyalarsiz hayotimizni tasavvur qilish juda qiyin. Lekin, barcha yoshlar o'z kasbining mutaxassisi bo'lishi uchun zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalana olishi va uni to'g'ri tadbiiq qilishi, axborot resurslaridan to'g'ri foydalanishi lozim. Bilimning yanada samarali bo'lishi va yaxshi mutaxassis bo'lish uchun pedagoglarning ham ahamiyati katta.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda zamonaviy texnologiyalardan qay tartibda foydalanish mumkin? degan savol barchamiz uchun qiziq, albatta.

1. Zamonaviy texnologiyalardan ma'lum bir maqsad yo'lidagina foydalanish.
2. Ta'lim muassasalarida zaruriyat bo'lmasa mobil a'loqa vositalaridan foydalanmaslik.
3. Zaruriyat hollarda foydalanilganda so'zlashuv madaniyatiga rioya qilish.
4. Xabarlar yozishganda(barcha turda) yozishmalar etikasiga rioya qilish.
5. Telefon apparatidan foydalanish qoidalariga rioya qilish zarur.
6. Pedagog va talaba o'rtadida erkin muloqotni yo'lga qo'yish, pedagoglar talabani dars mashg'ulotlariga qiziqтира bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida ko'zga tutilgan masalalarga to'g'ri yechim topa olsakgina, kelajakda yurtimizga foydasi tegadigan kadrlar yetishib chiqadi. Buning uchun talabalardan talab qilinadigan narsa texnikalardan to'g'ri foydalana olish, intizom va tartib. O'ylayman-ki biz yoshlar bu ishlarning uddasidan albatta chiqamiz!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov. Axborot texnologiyalari.
2. Z.S.Abdulayev, G.Shodmonov, S.S.Mirzayev, N.B.Shamsiddinov. Informatika va axborot texnologiyalari.
3. M.M.Oripov, J.O'.Muhammadiyev. Informatika, information texnologiyalari.
4. Yoshlar Ziyonet.